

**«MOHIRDEV» MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI**  
**ARXIV KURSLARIGA OBUNA XIZMATI KO'RSATISH**  
**BO'YICHA OMMAVIY OFERTA**

|                                     |                                                                           |
|-------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| <b>Tarif</b>                        | «Arxiv»                                                                   |
| <b>Birinch obuna davri</b>          | 4 (to'rt) oy — 990 000 so'm                                               |
| <b>Keyingi obuna davrlari</b>       | har 3 (uch) oyda — 1 190 000 so'm                                         |
| <b>Kurslar formati</b>              | to'liq yozib olingan (arxiv) videokurslar — live darslar emas             |
| <b>Kurator / qo'llab-quvvatlash</b> | taqdim etilmaydi                                                          |
| <b>Sotuvchi</b>                     | «MOHIRDEV» MCHJ, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Chimkent ko'chasi, 8-uy |
| <b>Amal qilish boshlanishi</b>      | Platformada e'lon qilingan kundan                                         |

Redaksiya 1.0 · 2026-yil 11-sentabr · <https://mohirdev.uz>

## MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar
2. Asosiy tushunchalar
3. Shartnoma predmeti
4. Obuna tariflari, narxi va to'lov tartibi
5. Obunani uzaytirish, to'xtatib turish va bekor qilish
6. To'lovdan keyingi tartib va arxivga kirish
7. Taraflarning huquq va majburiyatlari
8. Xizmatlardan voz kechish va pulni qaytarish
9. Mualliflik huquqi va foydalanish cheklavlari
10. Yakuniy qoidalar

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu oferta «MOHIRDEV» MCHJ (keyingi o'rinlarda — Sotuvchi) tomonidan Mohirdev platformasida joylashtirilgan arxiv kurslariga obuna xizmatini ko'rsatish tartibini, obuna narxini, to'lov va uzaytirish tartibini, shuningdek Xaridor va Sotuvchi o'rtasida shu munosabat bilan yuzaga keladigan boshqa masalalarni tartibga soladi.

1.2. Ushbu oferta **Sotuvchining amaldagi «Bir martalik to'lov asosida videokurslarni xarid qilish bo'yicha ommaviy oferta»** (keyingi o'rinlarda — Asosiy oferta, <https://mohirdev.uz/ommaviy-oferta> manzilida joylashtirilgan) hujjatiga qo'shimcha va undan mustaqil hujjat hisoblanadi. Arxiv kurslariga obuna bo'yicha munosabatlarda ushbu ofertaning shartlari ustuvor kuchga ega. Ushbu ofertada alohida tartibga solinmagan barcha masalalar bo'yicha — jumladan Xaridorni ro'yxatdan o'tkazish, bank kartasini ulash va Takroriy to'lov xizmatini yoqish tartibi, taraflarning umumiy javobgarligi, fors-major holatlari, shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish va nizolarni hal qilish tartibi bo'yicha — Asosiy oferta shartlari qo'llanadi.

1.3. O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat, iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish va shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanish kabi sohalardagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan «Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari», «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun, «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

**1.4. Muhim ogohlantirish.** Xaridor ushbu ofertani aksept qilish orqali, «Arxiv» tarifi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish faqat to‘liq yozib olingan (oldindan tayyorlangan) videokurslarga o‘z-o‘zini o‘qitish tartibida kirish imkonini berishini, kurslar jonli (live) formatda emasligini, ushbu tarif doirasida kurator, uy vazifalarini tekshirish, individual yoki guruh maslahatlari hamda kursni tugatgani to‘g‘risida sertifikat berish nazarda tutilmaganligini to‘liq tushunganini va bunga rozi bo‘lganini tasdiqlaydi.

## 2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Ushbu ofertada ishlatiladigan «Sotuvchi», «Platforma», «Sayt», «Shaxsiy kabinet», «Karta», «Kafil», «Elektron aloqa kanali» kabi atamalar Asosiy ofertaning 2-bandida berilgan ma’nolarda qo‘llaniladi.

«Xaridor» va «Aksept» atamalari esa Asosiy ofertada bir martalik to‘lov modeliga mo‘ljallab ta’riflanganligi sababli, ushbu oferta doirasida mustaqil ravishda quyidagicha belgilanadi, qolgan barcha atamalar esa Asosiy ofertadagi ma’noda qo‘llaniladi:

**Xaridor** — Arxiv kurslariga Obuna asosida kirish huquqini sotib olish istagini bildirgan va ushbu ofertani aksept qilgan jismoniy shaxs.

**Aksept** — Xaridor tomonidan «Arxiv» tarifi bo‘yicha birinchi to‘lovning amalga oshirilishi. Aksept Xaridorning ushbu oferta shartlariga, jumladan Obunaning Takroriy to‘lov xizmati orqali avtomatik uzaytirilishi tartibiga to‘liq va so‘zsiz rozi bo‘lganini hamda taraflar o‘rtasida shartnoma tuzilganini bildiradi.

**Arxiv kurslari** — Sotuvchi tomonidan oldindan to‘liq yozib olingan va Platformada joylashtirilgan videokurslar to‘plami bo‘lib, ular jonli (live) formatda emas, balki o‘z-o‘zini o‘qitish tartibida taqdim etiladi.

**Obuna** — Xaridorga Arxiv kurslariga muayyan Obuna davri mobaynida kirish huquqini beruvchi, ushbu oferta asosida tuziladigan va Takroriy to‘lov xizmati orqali avtomatik uzaytiriladigan xizmat ko‘rsatish shartnomasi.

**Obuna davri** — Xaridorning Arxiv kurslaridan foydalanish huquqi amal qiladigan vaqt oralig‘i. Birinchi Obuna davri — 4 (to‘rt) oy, undan keyingi har bir Obuna davri — 3 (uch) oy.

**«Arxiv» tarifi** — ushbu oferta bilan belgilangan, Arxiv kurslariga Obuna asosida kirish huquqini beruvchi xizmat turi.

**Takroriy to‘lov** — Asosiy ofertaning «Karta» ta’rifi va 6.8-bandida nazarda tutilgan, Xaridorning bank kartasidan Obunani uzaytirish uchun avtomatik ravishda mablag‘ yechib olish xizmati.

## 3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Sotuvchi Xaridorga «Arxiv» tarifi bo‘yicha Obuna asosida Arxiv kurslariga kirish huquqini taqdim etadi, Xaridor esa ushbu huquq uchun to‘lov qilish majburiyatini oladi.

3.2. Arxiv kurslari to‘liq yozib olingan videodarslar, ularga tegishli taqdimotlar, konspektlar va boshqa yordamchi materiallardan iborat bo‘lib, Platformada Obuna amal qilgan butun davr mobaynida foydalanish uchun ochiq bo‘ladi.

3.3. «Arxiv» tarifi doirasida quyidagilar taqdim etilmaydi: (a) kurator yoki Xaridorga biriktirilgan boshqa xodim; (b) uy vazifalarini tekshirish va ularga yozma sharh berish; (c) individual yoki guruh maslahatlari; (d) amaldagi (live) oqimlarning chat va guruhlariga kirish huquqi; (e) kursni tugatgani to'g'risida sertifikat. Ushbu cheklovlar to'lovni amalga oshirishdan oldin Xaridorga ma'lum qilingan hisoblanadi.

3.4. Arxiv kurslari tarkibi bilim bazasi sifatida saqlanadi, biroq Sotuvchi undagi alohida kurslarni yangilash, to'ldirish yoki litsenziya muddati tugashi, dastur yangilanishi va shunga o'xshash obyektiv sabablarga ko'ra Arxivdan olib tashlash huquqiga ega, bunda Arxivning umumiy hajmi va xarakteri sezilarli darajada kamaytirilmasligi lozim.

3.5. Agar Sotuvchi 3.4-bandda ko'rsatilgan chegaradan ortiq darajada Arxiv kurslari tarkibini qisqartirsa, Xaridor joriy Obuna davri uchun to'langan summaning foydalanilmagan qismini qaytarib olishni yoki Obunani muddatidan oldin, to'lovsiz bekor qilishni talab qilishga haqli.

## 4. OBUNA TARIFLARI, NARXI VA TO'LOV TARTIBI

4.1. «Arxiv» tarifi narxi quyidagicha belgilanadi:

| Obuna davri                 | Davomiyligi  | Narxi          |
|-----------------------------|--------------|----------------|
| Birinch obuna davri         | 4 (to'rt) oy | 990 000 so'm   |
| Keyingi har bir obuna davri | 3 (uch) oy   | 1 190 000 so'm |

4.2. Ko'rsatilgan narxlarga barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kiritilgan.

4.3. To'lov Asosiy ofertaning 4 va 6-bandlarida belgilangan tartibda, Xaridor tomonidan Platformaga ulangan bank kartasi (UzCard, Humo, Visa va/yoki Mastercard) orqali amalga oshiriladi.

4.4. Birinchi to'lovni amalga oshirish orqali Xaridor Asosiy ofertaning «Karta» ta'rifida nazarda tutilgan Takroriy to'lov xizmatini «Arxiv» tarifi bo'yicha keyingi Obuna davrlari uchun o'z kartasida yoqishga roziligini bildiradi.

4.5. Sotuvchi «Arxiv» tarifining narxini kelajakdagi Obuna davrlari uchun o'zgartirish huquqiga ega. Narx o'zgarishi Xaridor allaqachon to'lagan joriy Obuna davriga ta'sir qilmaydi va bunday o'zgarish kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Elektron aloqa kanali orqali Xaridorga xabar qilinadi. Yangi narx to'g'risida xabar olgan Xaridor 5.3-bandda nazarda tutilgan tartibda Obunani bekor qilishga haqli; bu holatda yangi narx bo'yicha to'lov undan yechib olinmaydi.

4.6. Agar Xaridor ro'yxatdan o'tish jarayonida Kafil ko'rsatgan bo'lsa, Kafilning Asosiy oferta asosida to'lov majburiyatlarini subsidiar tartibda ta'minlashga bildirgan roziligi ushbu oferta bo'yicha barcha Obuna davrlariga, jumladan Takroriy to'lov tartibida amalga oshiriladigan keyingi davrlarga ham nisbatan qo'llanadi.

## 5. OBUNANI UZAYTIRISH, TO'XTATIB TURISH VA BEKOR QILISH

5.1. Joriy Obuna davri tugashidan oldin Xaridor Obunani 5.3-bandda ko'rsatilgan tartibda bekor qilmagan bo'lsa, Obuna keyingi Obuna davriga (3 oy, 1 190 000 so'm yoki 4.5-bandga muvofiq yangilangan narx bo'yicha) Takroriy to'lov xizmati orqali avtomatik uzaytiriladi.

5.2. Sotuvchi Xaridorni yaqinlashib kelayotgan uzaytirish va mablag' yechib olinishi haqida kamida 3 (uch) kalendar kun oldin Elektron aloqa kanali orqali xabardor qiladi.

5.3. Xaridor Obunaning avtomatik uzaytirilishini istalgan vaqtda Shaxsiy kabinet orqali yoki Sotuvchining qo'llab-quvvatlash bo'limiga murojaat qilish orqali bekor qilishga haqli. Navbatdagi mablag' yechib olish sanasidan oldin amalga oshirilgan bekor qilish Xaridorni keyingi Obuna davri uchun to'lovdan ozod etadi; bunda Arxiv kurslariga kirish huquqi allaqachon to'langan Obuna davri oxirigacha saqlanib qoladi.

5.4. Xaridorning bank kartasida mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda, Sotuvchi Asosiy ofertaning 6.9-bandiga muvofiq Kafil kartasidan mablag' yechib olishga yoxud keyingi 3 (uch) kalendar kun ichida qayta urinish tartibida to'lovni amalga oshirishga harakat qiladi. To'lov amalga oshmagan taqdirda, Arxiv kurslariga kirish to'lov amalga oshirilgunga qadar to'xtatib turiladi.

5.5. Sotuvchi Xaridor tomonidan ushbu ofertaning 9-bandida ko'rsatilgan shartlar buzilgan taqdirda, Xaridorning Arxiv kurslariga kirish huquqini to'lovni qaytarmasdan bir tomonlama to'xtatish yoki bekor qilish huquqiga ega.

5.6. Agar 5.4-bandda ko'rsatilgan qayta urinishlarga qaramay, to'lov muvaffaqiyatsiz sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida amalga oshmasa, Obuna avtomatik ravishda bekor qilingan hisoblanadi. Obunani qayta faollashtirish uchun Xaridor yangi to'lovni ushbu ofertada belgilangan amaldagi narx bo'yicha amalga oshirishi lozim.

## **6. TO'LOVDAN KEYINGI TARTIB VA ARXIVGA KIRISH**

6.1. To'lov amalga oshirilganidan so'ng, texnik uzilishlar bo'lmagan taqdirda, Xaridorga Arxiv kurslariga kirish huquqi 15 (o'n besh) daqiqa ichida taqdim etiladi.

6.2. Kirish Xaridorning Shaxsiy kabineti orqali ta'minlanadi.

6.3. Agar 6.1-bandda ko'rsatilgan muddatda kirish taqdim etilmasa, Xaridor to'lov chekini ilova qilgan holda Sotuvchining qo'llab-quvvatlash bo'limiga murojaat qiladi; bunday holatda kirish qo'lda, 1 (bir) ish kuni ichida ta'minlanadi.

6.4. Arxiv kurslaridan foydalanishning texnik imkoniyati faqat to'langan Obuna davri mobaynida ta'minlanadi. Obuna 5-bandga muvofiq uzaytirilmagan taqdirda, davr tugashi bilan Arxiv kurslariga kirish imkoniyati to'xtatiladi.

## **7. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

7.1. Ushbu ofertada alohida ko'rsatilmagan barcha huquq va majburiyatlarga nisbatan Asosiy ofertaning 5-bandi («Taraflarning huquq va majburiyatlari») qo'llaniladi, bunda «Arxiv» tarifi doirasida kurator va qo'llab-quvvatlash xizmati ko'rsatilmasligi (ushbu ofertaning 3.3-bandi) inobatga olinadi.

### **7.2. Sotuvchi qo'shimcha ravishda quyidagilarga majburiy:**

7.2.1. Xaridorni yaqinlashib kelayotgan uzaytirish to'g'risida 5.2-bandga muvofiq xabardor qilish.

7.2.2. Arxiv kurslari tarkibidagi sezilarli o'zgarishlar to'g'risida Xaridorni xabardor qilish.

### **7.3. Xaridor qo'shimcha ravishda quyidagilarni bajarishi shart:**

7.3.1. Arxiv materiallaridan faqat shaxsiy, notijorat maqsadlarda foydalanish.

7.3.2. Shaxsiy kabinetga kirish ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

### **7.4. Xaridor qo'shimcha ravishda quyidagi huquqlarga ega:**

7.4.1. Obunani istalgan vaqtda 5.3-bandga muvofiq bekor qilish.

7.4.2. «Arxiv» tarifi doirasida kurator yoki individual yordam ko'rsatilmasligini bilgan holda, faqat texnik masalalar bo'yicha Sotuvchining qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish.

## **8. XIZMATLARDAN VOZ KECHISH VA PULNI QAYTARISH**

8.1. Arxiv kurslariga kirish to'lovdan so'ng zudlik bilan taqdim etilishi va raqamli kontent xarakteriga ega bo'lishi sababli, to'langan summa — ushbu bandning 8.2-qismida nazarda tutilgan holat bundan mustasno — qaytarilmaydi.

8.2. Agar Xaridor Shaxsiy kabinetiga birinchi marta kirmagan va Arxiv materiallaridan foydalanmagan bo'lsa hamda to'lov sanasidan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida Sotuvchining qo'llab-quvvatlash bo'limiga yozma murojaat yuborgan bo'lsa, to'langan summa to'liq qaytariladi.

8.3. 8.2-bandda ko'rsatilgan muddat o'tganidan yoki Xaridor Shaxsiy kabinetiga birinchi marta kirganidan so'ng — qaysi biri oldinroq sodir bo'lishidan qat'i nazar — xizmat ko'rsatilgan va foydalanilgan hisoblanadi, to'lov qaytarilmaydi.

8.4. Murojaatlar Asosiy ofertaning 7.2-bandida ko'rsatilgan tartibda, 14 (o'n to'rt) ish kuni ichida ko'rib chiqiladi. Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda mablag' 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Xaridorning kartasiga qaytariladi.

## **9. MUALLIFLIK HUQUQI VA FOYDALANISH CHEKLOVLARI**

9.1. Arxiv kurslari materiallari (video, matn, grafik va boshqa materiallar) mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lib, ulardan Sotuvchining yozma ruxsatisiz nusxa ko'chirish, ekrandan yozib olish, tarqatish, nashr etish, uchinchi shaxslarga o'tkazish yoki tijorat maqsadida foydalanish taqiqlanadi.

9.2. Ushbu bandning buzilishi Asosiy ofertaning 9.7-bandida nazarda tutilgan javobgarlikka, jumladan 100 000 000 (yuz million) so'm miqdoridagi jarimaga sabab bo'ladi, shuningdek Sotuvchiga Xaridorning Arxiv kurslariga kirish huquqini to'lovni qaytarmasdan bekor qilish huquqini beradi.

## **10. YAKUNIY QOIDALAR**

10.1. Ushbu oferta Platformada e'lon qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

10.2. Sotuvchi va Xaridor o'rtasidagi shartnoma Xaridor birinchi to'lovni amalga oshirgan (aksept qilgan) paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Obuna ushbu ofertaning 5-bandiga muvofiq bekor qilinmaguncha yoki to'xtatilmaguncha amal qiladi.

10.3. Sotuvchi ushbu ofertaga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish huquqiga ega; o'zgartirishlar Platformada e'lon qilingan sanadan kuchga kiradi va allaqachon to'langan joriy Obuna davriga ta'sir qilmaydi.

10.4. Ushbu ofertada tartibga solinmagan barcha boshqa masalalarda Asosiy oferta va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo'llanadi.

10.5. Ushbu ofertaning biror bandi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, qolgan bandlar o'z kuchini saqlaydi.

## **AKSEPT TO'G'RSIDA**

Ushbu ofertada belgilangan tartibda birinchi to'lovni amalga oshirish orqali Xaridor «Arxiv» tarifi shartlari bilan to'liq tanishganini, ularni tushunganini va so'zsiz qabul qilganini, xususan 1.4-band (xizmat tarkibi —

kurator va qo‘llab-quvvatlashsiz), 4-band (narx va to‘lov tartibi), 5-band (obunani avtomatik uzaytirish va uni bekor qilish tartibi) hamda 8-band (pulni qaytarish shartlari) bilan alohida tanishganini tasdiqlaydi.

## **SOTUVCHI MA'LUMOTLARI**

«MOHIRDEV» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Chimkent ko'chasi, 8-uy

STIR: 308 980 674

Hisob raqami: 20208000105454404001

Bank: AT «Aloqabank» Bosh ofisi

MFO: 00401

Telefon: +998 77 113 62 72

Sayt: <https://mohirdev.uz> · <https://praktikum.mohirdev.uz>